MALAKA OSHIRISH KURSLARI FAOLIYATIDA RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Valiyeva Nasiba Xadiyatullayevna
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
mustaqil izlanuvchi,
vanasib@gmail.com

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamlashtirishning o'rni va ahamiyati, malaka oshirish jarayonlarini yangilash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ta'lim resurslaridan foydalanish tannarxini kamaytiradi va bilimlarni o'zlashtirish tezligini oshiradi. Raqamli kompetensiyalar malaka oshirish jarayonining ajralmas qismidir. Raqamli kompetensiyalar, nafaqat ish joyidagi muvaffaqiyatni oshirish, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham muhimdir. O'zbekiston sharoitida, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi[1] doirasida kadrlar sifatiga bo'lgan talab oshayotganligi kuzatilmoqda. Jahon iqtisodiy forumining[2] ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib ish o'rinlarining 50% yangi ko'nikmalarni talab qiladi. O'zbekiston uchun bu raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish yo'lida zaruriy qadamlardan biridir. Malaka oshirish dasturlari raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish zarur.

An'anaviy malaka oshirish tizimlari zamon talablariga mos kelmaydi. Statik o'quv dasturlari zamonaviy mehnat bozorining ehtiyojlariga javob bermaydi. Bu esa amaliyot va nazariya o'rtasidagi tafovutni kuchaytiradi. Raqamli ta'lim muhitida o'quv dasturlarining yangilanishi muhimdir. Malaka oshirish jarayonlarini interaktiv va eng zamonaviy metodlardan foydalanib yanada mukammallashtirish zarur. Raqamlashtirish jarayonida uchta asosiy yondashuv - *tizimli, kompetensiyaviy va andragogik* yondashuvlar aniqlanadi. Tizimli yondashuv orqali malaka oshirish jarayoni ta'lim resurslari, texnologiyalar va malakalarni birlashtiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa, amaliy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Andragogik yondashuv esa, kattalarni o'z tajribasidan foydalanishda rag'batlantiradi.

Raqamli ta'lim infratuzilmasi tizimli yondashuv orqali mustahkamlanishi kerak. Bu yondashuv raqamli platformalar, intellektual kontent va tinglovchilarning ehtiyojlarini ko'rib chiqadi. O'qitish jarayonida barcha tizimlar bir-biri bilan uzviy bog'lanishi zarur. Tizimli raqamlashtirish ta'lim jarayonini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Tizimli raqamlashtirish an'anaviy ta'lim komponentlarini shunchaki elektron formatga o'tkazish emas, balki pedagogik maqsadlar va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi funksional mutanosiblikni ta'minlashdir[3].

Kompetensiyaviy yondashuv, kattalar ta’limida nazariy bilimlarni hisobga olib, amaliy ko‘nikmalarga qaratilgan bo‘lishi kerak. Raven J. yondashuviga ko‘ra, kompetensiyaga asoslangan raqamli ta’lim natijasi shaxsning nafaqat "bilishi", balki o‘zgaruvchan mehnat bozori sharoitida raqamli vositalar yordamida murakkab professional topshiriqlarni samarali bajarish qobiliyati bilan o‘lchanadi[4]. Ushbu yondashuv orqali tinglovchilar real hayotdagi muammolarni yechishda eng yaxshi usullarni o‘zlashtiradilar. Interaktiv simulyatorlar va onlayn kurslar bunday yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Andragogik yondashuv malaka oshirish jarayonida kattalarning hayotiny va professional tajribasini o‘quv mazmunining asosiy manbai sifatida tan oladi hamda raqamli muloqot orqali ushbu tajribani kollektiv tahlil qilishga sharoit yaratadi.

Raqamlashtirish sharoitida ushbu yondashuv forumlar, vebinarlar va hamkorlikdagi loyihalar orqali tinglovchilar o‘rtasida gorizontal bilim almashinuvini (P2P learning) jadallashtirishga xizmat qiladi. Xorijiy manbalarni o‘rganib chiqish natijasida biz qabul qilingan nazariy-metodologik komponentlarni quyidagi jadvalda keltiramiz.


1-jadval

Malaka oshirish kurslari faoliyatini raqamlashtirishda nazariy-metodologik komponentlar[1]

Malaka oshirish kurslari faoliyatini raqamlashtirishda nazariy-metodologik komponentlar		
Nazariy komponentlar		Metodologik komponentlar
O‘qitish usullari: - Masofaviy ta’lim. - Blended learning (aralash ta’lim). - O‘qitishda interaktiv metodlar.	1	O‘qitishni rejalashtirish: - O‘quv dasturlarini tayyorlash. - Resurslarni taqsimlash.
Texnologik infratuzilma: - O‘qitish platformalari (masalan, Moodle, Coursera). - Mobil ilovalar.	2	O‘qituvchilar tayyorlanishi: - Pedagogik malaka oshirish. - Texnologiyalarni o‘zlashtirish.
Ma’lumot bazasi: - Talabalar va treninglar uchun ma’lumotlar.	3	Baholash tizimlari: - O‘qish natijalarini baholash metodlari. - Sertifikatlash tizimlari.

[1] Muallif ishlanmasi.

Malaka oshirish tizimini raqamlashtirishda, bizning fikrimizcha, quyidagi raqamli ta’limning asosiy tamoyillarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi (1-rasm):



1-rasm Raqamli ta’limning asosiy tamoyillari

Moslashuvchanlik zamonaviy raqamlashtirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Kattalar ta’limida individual ta’lim traektoriyalari, tinglovchilarga o‘z o‘quv tezligi va vaqtlari bilan boshqarish imkonini beradi. Bu tamoyil, o‘qish motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Mobillik, ta’lim jarayonini ish joyidan va vaqtdan ajralmas holda tashkil etishga imkon yaratadi. Mobil o‘qitish imkoniyatlari, zamonaviy mutaxassisning uzluksiz o‘zgaruvchan muhitga moslashuvini ta’minlaydi. Interaktivlik ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Geymifikatsiya va tezkor qayta aloqa elementlari tinglovchilarni faollikka rag‘batlantiradi. Bu jarayon, o‘quvning sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Multimedialik. Kontentning polimodal taqdimoti, o‘qitishda foydalanuvchilarni turli sensor kanallari orqali jalb qilishi zarur. Video-ma’ruzalar, interaktiv infografikalar va boshqa multimedia vositalari, bilim olish jarayonini yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi. Zamonaviy andragogikada quyidagi uchta model malaka oshirish kurslari samaradorligini oshirishning asosiy drayverlari sifatida e’tirof etilmoqda:blended learning (aralash ta’lim), micro-learning (mikro-o‘qitish), flipped classroom (teskari yoki to‘ntarilgan sinf). Malaka oshirish tizimini raqamlashtirishning nazariy-metodologik asoslari amaliyotda o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS — Learning Management Systems) va innovatsion intellektual texnologiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Zamonaviy andragogikada raqamli infratuzilma shunchaki ma’lumot saqlash ombori emas, balki ta’lim sifatini monitoring qiluvchi va optimallashtiruvchi ekotizim funksiyasini bajaradi. Raqamlashtirish malaka oshirish jarayonlarining ta’lim paradigmasini o‘zgartiradi. Tizimli, kompetensiyaviy va andragogik yondashuvlarni to‘g‘ri birlashtirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu jarayon nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi,

balki mutaxassislarga "umr davomida ta’lim olish" prinsipini amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi PF-6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. World Economic Forum (WEF). The Future of Jobs Report 2023. – Geneva: WEF, 2023.
3. Яковлева, О. В. Цифровая дидактика: новые возможности и вызовы для профессионального развития педагога. Педагогика и психология образования, 2021.
4. Raven, J. The Meaning of Competence and its Implication for Education. Eye on Society,2017

